

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.02/30/12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

IMOMALIYEVA MUSHARRAFXON ILHOMJON QIZI

AMIRIY IJODIDA IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi Amiriy ijodida irfoniy g‘oya va timsollar	3
Imamaliyeva Musharrafkhan Ilhomjon qizi Mystical ideas and symbols in Amiri’s work.....	25
Имомалиева Мушаррафхан Илхомджон кизи Идеи познания и образы в творчестве Амири.....	49
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ	53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.02/30/12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

IMOMALIYEVA MUSHARRAFXON ILHOMJON QIZI

AMIRIY IJODIDA IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2428 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ochilov Ergash Zokirovich
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Amonova Zilola Kadirovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhiddinova Nazmiya Muslihiddinovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" aprel soat 14.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (24 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" mart da tarqatildi.
(2025-yil "24" mart dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



B. To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R. Barakayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.n., professor

U. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida mumtoz asarlarni tasavvuf motivlari in'ikosi va irfoniy timsollar orqali aks etgan ramziy-majoziy ma'nolar nuqtayi nazaridan o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinyapti. Chunki irfoniy istiloh, timsol va obrazlar anglatgan xilma-xil ma'nolarni bilmay turib, o'tmishda yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama keng va teran tushunib bo'lmaydi. Tasavvuf ahlining ilohiy ishq va komil inson bilan bog'liq qarashlari asrlar davomida ijod ahliga alohida ilhom berib kelgani ma'lum.

Dunyo mamlakatlaridan Germaniya, Angliya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Tojikiston, Ozarbayjon olimlari o'z tadqiqotlarida Sharq mumtoz so'z san'ati, jumladan, o'zbek adabiyotida tasavvuf falsafasining badiiy talqinlari, irfoniy istiloh va timsollarning o'tmish adabiyoti namunalari tutgan o'rni bo'yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

O'zbek mumtoz adabiyotining qadimiy sarchashmalarini, uning rivojiga turtki bergan diniy-tasavvufiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslarni har tomonlama chuqur o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar istiqloq yillarida yuzaga keldi. Bu davrda diniy qadriyatlarga keng yo'l ochilib, islom ta'limoti va tasavvuf falsafasini har tomonlama o'rganish asnosida diniy-tasavvufiy ruhdagi o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari ham muhim tadqiq obyektiga aylandi. Natijada o'tmish so'z san'ati namunalari ularda aks etgan islomiy va irfoniy g'oya va qarashlar nuqtayi nazaridan o'rganila boshlandi. Zero, "Adabiyot – jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vataniga, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega"¹. Islom dinining ma'naviy-axloqiy qarashlari chashmasidan suv ichgan tasavvuf falsafasining hayotbaxsh insonparvarlik g'oyalari asrlar davomida o'zbek mumtoz so'z san'atida ham o'zining keng va rang-barang ifodasini topib kelgan. Bu tasavvufiy g'oya va qarashlar, istiloh va timsollar, adabiy va tarixiy obrazlar badiiy talqinlarining Amiriy ijodi misolida tadqiq etilgani ayni jihatdan mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi va muhimligini belgilaydi. Chunki bu istiloh, timsol va obrazlar vositasida Amiriy o'zining irfoniy qarashlarini ilgari surgan, ayni paytda ular shoir she'rlaridagi badiiy maqsad ifodasiga xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сон "Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисидаги" қарори // Халқ сўзи. – 2017. – 14 сентябрь. <http://www>.

chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Amiriy hayoti, faoliyati va ijodi yuzasidan turli darajadagi izlanishlar olib borilgan. Xususan, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Miyon Buzruk Solihov, Olim Sharofiddinov, V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, M.Qodirova, T.Jalolov, P.Qayyumov, A.Qayumov, M.Qodirova, Z.Qobilova, A.Erkinov, O.Jo'raboyev kabi olimlar zullisonayn shoir tarjimai holi, u mansub adabiy muhit hamda turkiy va forsiy merosini u yoki bu darajada o'rgananlar².

Tasavvuf ta'limoti va irfoniy g'oya-qarashlarning o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini masalalari bo'yicha istiqloq yillarida bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, N.Komilov, M.Imomnazarov, Sh. Sirojiddinov R.Vohidov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, A.Abduqodirov, S.Olimov, N.Jumaxo'jayev, D.Salohiy, N.Jabborov, M.Asadov, U.Qobilov, H.Eshonqulov,

² Qarang: Намунаи адабиёти тоҷик. Жамъ кунанда: Садриддин Айний. – М., 1926. – С. 195–197; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд (Илмий асарлар). – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 59–60; Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.84–90; Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. 1-қисм. – Тошкент: Ўзнашр, 1930. – Б. 74–86; Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. XV–XIX асрлар. Олий педагогика ўқув юртлари учун. Тузувчи О.Шарафиддинов. – Тошкент, 1945. – Б. 179–190; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: 1961. –Б. 324; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб (XV асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигача). – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. –Б.118–120; Жалолов. Т. Ўзбек шоирлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. –Б. 38–43; 73–85; Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий. – Тошкент, 1998. – Б.107–111; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 279; Қодирова М. Амирий // Адабий мерос, 2-китоб. – Тошкент, 1971. – Б. 102–112; Амирий. Девон. Нашра таъёрловчи М.Қодирова. – Тошкент, Фан, 1972; Эркинов А. Қўқон ҳукмдори Умархон (1810–1822) кутубхонаси масаласи / "Амирий ва Қўқон адабий муҳити" мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 66–69; Эркинов А. Қўқон ҳукмдори Умархоннинг (1810–1822) шахсий уч муҳри // Мерос. 2015, №2–3. – Б. 131–137; Эркинов А. "Олтин Бешик" афсонаси ва Дақикий Самарқандийнинг "Бахтиёрнома" асари // Жаҳон адабиёти, 2014, 4-сон. – Б. 181–188; Жўрабоев О. Нақшбандия ва Қўқон адабий муҳити / "Нақшбандия таълимоти ва миллий маънавиятимиз" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2008. –Б. 74; Жўрабоев О. Илохий тараннумлар соҳиби // 2009 йил 11 сентябрь. – Б. 4; Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2007; Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she'riyati misolida). Filol.fan.d-ri. (DSc) diss... – Toshkent, 2021.

Z.Amonova, N.Bekova, Sh.Hayitov, K.Mullaxo‘jayeva, Z.G‘afforova, M.Rajabova, N.Bozorova, O.Davlatov, Z.Mamadaliyeva, Z.Rahmonova, O.Avaznazarov kabi olimlarning tadqiqotlarida tasavvuf va badiiy ijod masalasining turli qirralari Alisher Navoiy va boshqa qator mumtoz shoirlar adabiy merosi misolida bir qadar keng va chuqur o‘rganildi³. Irfoniy she‘riyatda majoziy va haqiqiy ishq tasviri, tasavvufiy istiloh, timsol va obrazlarning badiiy vazifalari, komil inson bilan bog‘liq qarashlarning turfa talqinlari, hamd va na‘t g‘azallar poetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Amiriy tavalludining 230 yilligi munosabati bilan chop etilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallariga ham Amiriy va tasavvuf mavzusiga oid qator ma‘ruzalar kiritilgan.

Xorij adabiyotshunosligida ham irfoniy she‘riyatga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan⁴.

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalariidagi tasavvuf g‘oyalari va istilohlari istifodasi jihatidan qator izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, ba‘zi bir maqolalar va kitoblardagi bildirib o‘tilgan ayrim fikr-mulohazalarni aytmaganda, Amiriy ijodi bevosita tasavvuf ta‘siri va irfoniy istiloh, timsol va obrazlarning badiiy talqinlari nuqtayi nazaridan alohida tadqiqot mavzusi bo‘lgan emas. Holbuki, shoir ijodida islomiy ruh va tasavvufiy motivlar o‘zining yorqin ifodasini topganligini ko‘ramiz.

³ Qarang: Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009; Shu muallif. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005; Shu muallif. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Tamaddun, 2002; Imomnazarov M. Fors mumtoz adabiyoti (X–XV asrlar). – Toshkent: TDSHU. 2020; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent: Tamaddun, 2018; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Бухоро, 1994; Vohidov R., Eshonqulov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2008. – B.197–438; Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф адабиётининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан д-ри. дисс. – Тошкент: 1995; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991; Shu muallif. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро: 2000; Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007; Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007; Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005; Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Ваҳдат ул-вужуд проблемаси бўйича). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент: 1998; Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992; Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Салоҳий Д. Навоий насрида тасаввуф. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995; Shu muallif. Тасаввуф ва бадий ижод. – Самарқанд: СамДУ, 1995; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; Ҳайитов Ш. “Маҳбуб ул-қулуб”да тасаввуфий жилोलар. – Тошкент: Фан, 1998; Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида риндона маъно ва лирик қахрамон характери: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри дисс. – Тошкент: 2017; Қобилов У. Илоҳиёт ва бадийят. – Тошкент: Нихол, 2008; Shu muallif. Ўзбек адабиётида нубувват талқини ва образлари талқини: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Эшонқулов Ҳ. Самовот – ишқ мазҳари. Тошкент: Фан, 2008; Бекова Н. Алишер Навоий шеърятда ҳамд поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006; Амонова З. Хуруфийлик ва бадий ижод. – Тошкент: Paradigma, 2017; Муллахўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоъ” девони асосида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2005; Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Тошкент: Фан, 2009; Мамадалиева З.У. “Лисон ут-тайр” дostonидаги рамзий образлар тизими: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2011; Давлатов О.Д. Алишер Навоий шеърятда Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри автореф. – Самарқанд: 2017; Ғаффорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадий талқини: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. (PhD) дисс. – Самарқанд: 2018; Norqulova Sh. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘z va qosh timsolining badiiy talqinlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri. (PhD) diss. – Termiz: 2023; Avaznazarov O. Alisher Navoiy ijodida soqiy obrazi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri. (PhD) diss. – Qarshi: 2020.

⁴ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965; Керимов Г.М. Аль-Газали и суфизм. – Баку: Элм, 1969; Рипка Я. История персидской и таджикской литературы. – М.: Прогресс, 1970; Мухамедхольжаев А. Мироззрение Фаридиддина Аттора. – Душанбе: Дониш, 1974; Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. – М.: Наука, 1987 ва б.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT – F1-80 “Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi” nomli fundamental loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi Amiriy ijodini irfoniy g'oya, istiloh, timsol va obrazlarning badiiy talqinlari nuqtayi nazaridan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Amiriyning tasavvufga va naqshbandiya tariqatiga munosabati masalasini o'rganish;

shoir ijodidagi majoziy va haqiqiy ishq nisbatini muayyanlashtirish;

Amiriy she'rlaridagi irfoniy istilohlarning ma'no doiralarini tahlil qilish;

shoir g'azallarida keng qo'llangan tasavvufiy timsollarning badiiy vazifalarini tadqiq etish;

tasavvuf adabiyotining asosiy obrazlari tasvir va talqinini Amiriy adabiy merosi misolida an'ana va o'ziga xoslik jihatidan ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyektini Amiriy tavalludining 230 yilligi munosabati bilan nashr etilgan 2 jildlik o'zbekcha va tojikcha devonlari tashkil qiladi⁵. O'rni bilan shoir devonining O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 3642-raqamli qo'lyozmasi va Dushanbe hamda Turkiyada chop etilgan nashridan ham foydalanildi⁶.

Tadqiqotning predmetini Amiriy ijodida o'zining keng ifodasini topgan irfoniy g'oya, istiloh, timsol va obrazlarning mazmun-mohiyatini ochib berish va badiiy vazifalarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy va struktural metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amiriyning o'zbek va tojik (forsiy) tillaridagi adabiy merosi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 3642-raqamli qo'lyozma va 2017-yilda chop qilingan 2 jildlik “Devon”i nashrlariga tayanib, o'zbek adabiyotshunosligida birinchi marta tasavvufiy g'oya, istiloh, timsol va obrazlarning badiiy talqinlari asosida ochib berilgan;

naqshbandiya tariqati keng tarqalgan va faol amalda bo'lgan Qo'qon adabiy muhiti vakili Umarxon Amiriyning tasavvufga moyilligi o'z davrining mashhur murshidi bo'lgan Muhammad Ya'qubdan olgan sabog'i she'rlaridagi ishq talqini, sham va parvona, qatra va ummon, quyosh va zarra, kufr va iymon kabi ramziylik asosida yuzaga chiqqani aniqlangan;

Amiriy ijodida irfoniy mavzu ifodasi soqiy, orif, pir, murid, zohid, faqir kabi obrazlar; oyina, may, qadah, obi hayot, yuz, ko'z, soch, lab, xat kabi timsollar;

⁵ Амирий. Девон, II жилдлик, I. Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очиллов, З.Қобилова, О.Давлатов). II. Тожиқча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар: З.Қобилова, О.Давлатов). – Тошкент: Тамаддун, 2017.

⁶ Девони Амир // ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлэзмалар фонди, 3642-рақамли қўлэзма; Амирий. Ашъори форсий // Амирий (Умархони Хўқандий), Мухйии Хўқандий, Вахшии Бофқий, Розики Фоний. Чахор гулзор (Мураттиб ва таҳиягар: И.Зарифий). – Душанбе: Истеъдод, 2019; Ömer Han divanı // Sosyal Bilimler Enstitüsü, Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim dalı (Mustafa Tanç). –Van: 1994.

vahdat, kasrat, o'zlik, ma'rifat, tajalliy, mazhar singari istilohlar vositasida dalillangan;

shoir Nuh, Xizr, Sulaymon, Ya'qub, Yusuf, Muso, Iso Masih kabi payg'ambarlar bilan bog'liq mo'jizalar, ibratli voqea-hodisalarga ishoralardan o'quvchilarni haq yo'liga da'vat etish va ularga pand-nasihah qilish maqsadida foydalangan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Sharq mumtoz so'z san'atidagi mavjud an'analar ta'siri, shuningdek, bevosita o'zining tasavvufga moyilligi va bu borada maxsus ta'lim olganligi jihatidan Amiriy ijodi irfoniy g'oya va timsollarning keng va rang-barang badiiy talqinlaridan xoli emasligi asoslangan;

barcha o'tmish shoirlari kabi Amiriy ijodining ham asosi bo'lgan ishq mavzusi haqiqiy va majoziy muhabbat tanosibi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan;

Amiriy ijodida turli maqsadlarda faol qo'llangan irfoniy istiloh va timsollar bajargan badiiy vazifalar ochiqdangan;

tasavvuf she'riyatining asosiy qahramonlari bo'lgan payg'ambarlar, avliyolar va badiiy obrazlar tahlili orqali ularning irfoniy adabiyotdagi mavqe-maqomi oydinlashtirilgan;

hamd va na't asarlar faqat diniy g'oya va qarashlar talqinidan iborat bo'lib qolmay, balki irfoniy motivlardan ham holi emasligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kelgusida mumtoz so'z san'ati namunalarini ularda irfoniy g'oya va timsollarning aks etishi, tasavvufiy istilohlarning badiiy vazifalari bo'yicha amalga oshiriladigan turli yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun o'ziga xos yordamchi manbalardan biri bo'lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi asosiy nazariy umumlashmalar va ilmiy xulosalar asosida oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun mumtoz adabiyot tarixi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishda, turli metodik tavsiyanomalar tuzishda, magistr va bakalavrlar uchun maxsus kurslar o'qishda, ma'naviy-ma'rifiy merosni targ'ib etish borasida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi irfoniy istiloh, timsol va obrazlarning qiyosiy tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi, yoritilgan mavzuning muhim va dolzarbligi, dissertatsiyada qo'yilgan muammo va belgilangan vazifalarning hal etilganligi, ilgari surilgan fikr-u qarashlarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Amiriy ijodida irfoniy g'oya va timsollarning tadqiqi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Amiriyning o'zbek va tojik (forsiy) tillaridagi adabiy merosi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 3642-raqamli qo'lyozma va 2017-yilda chop qilingan 2 jildlik "Devon"i nashrlariga tayanib, o'zbek

adabiyotshunosligida birinchi marta tasavvufiy g'oya, istiloh, timsol va obrazlarning badiiy talqinlari asosida ochib berilgani bilan bog'liq xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" 2021–2023-yillarga mo'ljallangan fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 17-oktabrdagi 03-07-1400/05-son ma'lumotnomasi). Natijada Sharq mumtoz so'z san'atidagi mavjud an'analar, shuningdek, bevosita o'zining tasavvufga moyilligi va bu borada maxsus ta'lim olganligi jihatidan Amiriy ijodi irfoniy g'oya va timsollarning keng va rang-barang badiiy talqinlaridan xoli emasligi asoslangan;

naqshbandiya tariqati keng tarqalgan va faol amalda bo'lgan Qo'qon adabiy muhiti vakili Umarxon Amiriyning tasavvufga moyilligi o'z davrining mashhur murshidi bo'lgan Muhammad Ya'qubdan olgan sabog'i she'rlaridagi ishq talqini, sham va parvona, qatra va ummon, quyosh va zarra, kufr va iymon kabi ramziylik asosida yuzaga chiqqani aniqlanganiga doir yangiliklardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy tanqid kengashi hisobot yig'ilishlarida, Amiriy tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbirlarda, yosh ijodkorlar to'garagi, mahorat darslarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 11-martdagi 01-03/280-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarda adabiyot nazariyasi, adabiy ta'sir va ijodkor mahorati yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilishga erishilgan;

Amiriy ijodida irfoniy mavzu ifodasi soqiy, orif, pir, murid, zohid, faqir kabi obrazlar; oyina, may, qadah, obi hayot, yuz, ko'z, soch, lab, xat kabi timsollar; vahdat, kasrat, o'zlik, ma'rifat, tajalliy, mazhar singari istilohlar vositasida dalillangani haqidagi xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanali" DM tomonidan tayyorlangan "G'azal bo'stoni", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlarning ssenariylarida foydalanilgan (O'zbekiston" teleradiokanali" DMning 2024-yil 12-martdagi 04-36-360-son ma'lumotnomasi). Natijada Amiriy ijodida tasavvufning o'rni va mumtoz an'analar doirasida qilingan tahlillar radiotinglovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishiga erishilgan.

shoir Nuh, Xizr, Sulaymon, Ya'qub, Yusuf, Muso, Iso Masih kabi payg'ambarlar bilan bog'liq mo'jizalar, ibratli voqea-hodisalarga ishoralardan o'quvchilarni haq yo'lga da'vat etish va ularga pand-nasihati qilish maqsadida foydalangani asoslanganiga doir xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022–2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 4-dekabrdagi №10/189-son ma'lumotnomasi). Natijada targ'ibot anjumanlarining ilmiy-ma'rifiy jihatdan o'ziga xosligi ortishiga, badiiy adabiyotning tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 136 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslanib, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tasavvuf va Amiriy ijodi**” deb nomlanadi. Uning ilk faslida “Amiriy ijodida irfoniy mazmun ustuvorligini ta’minlagan omillar” o‘rganilgan.

Amiriy taxallusi bilan o‘zbek va fors-tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1787-1822) ma’rifatparvar hukmdor bo‘lib, yuzdan ziyod adib-u olimni atrofiga birlashtirgan Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi, rahnamosi va homiysi ham hisoblanadi. Shoh-shoir ijodi irfoniy mavzu va g‘oyalar har tomonlama keng va chuqur badiiy talqinini topgani bilan ham ajralib turadi.

Amiriy ijodidagi tasavvuf ohanglarini ko‘p yoqlama ta’sir natijasi sifatida baholash mumkin: birinchisi – mumtoz so‘z san’atidagi mavjud an’analar ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi – o’sha davrda Qo‘qonda katta nufuzga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqatiga mansublik, uchinchisi – bevosita uning o‘zidagi tasavvufga moyillik. Bular bir butun holda Amiriy ijodida irfoniy g‘oyalar ustuvorligini ta’minlagan omillar hisoblanadi.

Amiriy naqshbandiya tariqati namoyandalaridan Muhammad Ya’qub huzurida tasavvuf ilmidan saboq oladi⁷. Muhammad Ya’qub Oxund butun O‘rta Osiyoda ulug‘ alloma va so‘fiy sifatida mashhur bo‘lgan. U, nafaqat Umarxonga, balki, uning otasi Norbo‘taxon va akasi Olimxonga ham pir, ham ustoz bo‘lgan.

Amiriyning “yo shohi Naqshband” radifli 13 baytli forsiy g‘azalini ko‘zdan kechirish uning tasavvufga munosabatini bir qadar oydinlashtiradi. Amiriy asarlarining mavjud nashrlarida ayni g‘azalning e’lon qilinmaganligidan kelib chiqib, dissertatsiyada ushbu g‘azal to‘liq tahlil qilingan. Amiriy mazkur g‘azalda buyuk piring shaxsiyati, faoliyati, tariqati, ta’limoti, tasavvufdagi maqomi, shuhratini baytma-bayt bayon qilib boradi. “Bahouddin Naqshband ta’limoti birinchi navbatda shariatga qattiq rioya qilish, Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatiga

⁷ Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий, 1-китоб. – Тошкент: Қўлғемалар институти, 1998. – Б.108.

ergashish va har qanday bid'atdan saqlanishga asoslangan"⁸. Islom shariatini mahkam tutish va Muhammad alayhissalom sunnatiga amal qilish naqshbandiya tariqatining mustahkam tutqichi ekanligi quyidagi baytda yoritilgan:

*Gumkardagoni rohi Xudoro ba jahdi fayz
Hodii so 'i Payambari, yo shohi Naqshband*⁹.

“Albatta, ma'rifatli shoh Umarxonning Naqshband shaxsiga bo'lgan cheksiz hurmati va uning ta'limoti mohiyatini chuqur anglashi bu va boshqa bir necha she'ridan ham seziladi”¹⁰. Amiriyning mashhur “Qoshingga teguzmagil qalamni” g'azalining mana bu baytida ham naqshbandiya tariqatining muhim rashhalaridan biri hush dar dam – kishining sira g'ofil qolmay, har bir nafasidan ogoh bo'lishi haqidagi qoidasiga ishora qilinganini sezmaslik mumkin emas:

*La'ling g'amidin ko'zum to'kar qon,
Behuda kechurmagil bu damni (1,345)*¹¹.

Amiriy she'rlarida naqsh, naqshi po, xoki po, to'tiyo kabi so'zlarning ko'p qo'llanishi, ma'shuqa oyog'ining tuprog'i, qadamining gardi bo'lish, ayni paytda uning qadami g'uborini ko'zga to'tiyo qilish bilan bog'liq xoksorliklar ham naqshbandiy tariqati talab-qoidalariga muvofiq keladi.

Amiriyning irfoniy yo'nalishdagi she'rlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Shoirning ilohiy ishq mavzusidagi g'azal va muxammaslari.
2. Shoir g'azal va muxammaslaridagi bevosita irfoniy mazmundagi bayt va bandlar.

Shoirning “Ul faqirekim, qanoat bor edi odat ango”, “Ey, xating Xizr durur, soyayi zulfung zulumat”, “Qilg'och ul oy bir kecha charx uzra ohangi uruj”, “Xarobot ichra kirdim, ishq, naqdi roygon keltur”, “Ahli dunyo rohatin oshiq tamanno aylamas” kabi o'nlab g'azallarida tasavvuf haqiqatlari ifodasini ko'ramiz. Boshqa oshiqona g'azal va muxammaslari ham ilohiy ishq tarannumidan holi emas.

*Har nechakim fathi iqlimi jahon ettim, Amir,
Andin o'ttim, yor ko'yida makon ettim, Amir (1,81).* –

deb boshlanuvchi g'azalida jahonni boshdan-oyoq fath etganiga qaramay, oqibat yor ko'yini makon tutgani; gunohlar mulkini vayron qilib, shariat binosini bunyod etgani, shu tariqa yer yuzini dorilomonga aylantirgani; bu dunyoda komil pir xizmatini ado etganidan maqsad ilohiy ma'rifatga yetish ekani; vafo qilgan kishi o'ziga jafu etgani bahonasida olam ahlini sinovdan o'tkazgani; nafs-u havo lashkari qo'zg'olib, tug'yon aylaganida ular bilan jang qilib, mag'lub eta olgani; xalqqa mehribonlik fazilatini ko'rsatib, jumla jahonda o'ziga nisbatan muhabbat uyg'otgani; o'zini gulga o'xshatib zohiran elning ko'zini quvnatgani holda aslida bag'ri g'unchaday qonga to'lgani; dunyoga himmat shamshiri shu'lasini safo baxsh

⁸ Раҳимов К. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир. – Тошкент, 2020. – Б.140.

⁹ Девони Амир // ЎзР ФА Шаркшунослик институти қўлёзмалар фонди, 3642-рақамли қўлёзма, 47а-б–48а-варақлар.

¹⁰ Жўрабоев О. Нақшбандия ва Қўқон адабий муҳити / “Нақшбандия таълимоти ва миллий маънавиятимиз” мавзuidaги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2008. – Б. 74.

¹¹ Амирий. Девон, II жилдлик, I. Ўзбекча шеърлар. II. Тожиқча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). – Тошкент: Tamaddun, 2017. Shoir she'rlaridan misollar shu nashrdan olinib, jildi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi. – M.I.

etishi tufayli bu javharni elga namoyon qilganini birma-bir bayon etadiki, bularning bari irfoniy mazmunga dalolat qiladi.

Albatta, A.Qayumov ta’biri bilan aytganda, “podshoh rind bo’lishi mumkin emas. Uning tabiati rindona bo’lmog’i mumkin. Lekin amaliy faoliyati buning teskarisini taqozo qiladi, yo’qsa u podshoh bo’lolmaydi”¹². Hukmdor sifatida Amiriy ham tariqatga kirishi, so’fiylik talablarini bajarishi, darvesh, rind, qalandar bo’lishi mumkin emas edi. Lekin o’tmishda shohlarning tabiatan darvesh bo’lishi ularning botiniy fazilati sifatida ulug’langan. Ko’p shoh-shoirlar darveshlikni orzu qilib, bu kamtarin martabani jahon shohligidan ustun qo’yganlari ma’lum. Bunday niyatni Amiriyda ham ko’ramiz. Jumladan, Alisher Navoiyga tatabbu sifatida bitilgan “Ul faqirekim...” deb boshlanadigan g’azali (1,50) Amiriyning tasavvufga munosabatini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Podshohning suratda, ya’ni zohiran darvesh bo’lishi qiyin, lekin botinan darvesh bo’lgan podshoh chinakam podshohdir:

*Podshahliq suvratida sa’b o’lur darveshliq,
Xosa ul shoheki, bu suvratdurur siyrat ango.*

Tasavvuf falsafasida darvesh shohdan ustun qo’yiladi. Shuning uchun ko’p shohlar darveshlikni orzu qilganlar. Bunda shohning zohiran shoh bo’lgani holda, botinan darvesh bo’lishi taqozo qilinadi. Amiriyning surati siyratiga muvofiq kelgan shohni ulug’lashi shundan. Ayni paytda darveshlik niyatidagi shoh uchun faqr yo’li saltanatdan afzaldir. Shoh-shoir bir maqta’sida: “Faqr va ishq tariqati ichra qadam qo’yganimdan buyon olamda menga yetadigan qalandar ko’rmadim”, – deb faxr-u iftixor bilan lutf etgan edi:

*To qadam qo’ydim tariqi faqr-u ishq ichra, Amir,
Mulki olamda o’zumdek bir qalandar ko’rmadim (1,241).*

Amiriy asarlarini sevib mutolaa qilgan va ijodlaridan ta’sirlangan, she’riyat yo’lida o’ziga ustoz va rahnamo deb bilgan Hofiz Sheroziy, Kamol Xo’jandiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil kabi shoirlar o’z asarlarida tasavvuf ta’limotining insonparvarlik g’oyalari va ilohiy ishq haqidagi qarashlarini haddi a’losida tarannum etgan edilar. Bu zabardast so’z san’atkorlarining otashin muxlisi va sodiq izdoshi sifatida Amiriy ham ularga ergashib, irfoniy g’oya va qarashlarni o’z badiiy maqsadi yo’lida nazmiy talqin qilishi tabiiy edi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “**Amiriy ijodida haqiqiy va majoziy ishq tanosubi**” deb nomlanadi. Amiriy devoniga yozgan debochasida o’zidagi ijodga moyillik haqida “ko’ngul ishq-u muhabbat zavqig’a rog’ib va zamirimda oshiqona, shavqangez g’azallar shavqi g’olib erdi” deb yozar ekan, “al-majozu qantarat ul-haqiqa” ta’limi birla haqiqat sarmashqin olur erdim (1,26), – deb ta’kidlaydi. Bu bilan u “Majoz – haqiqatning ko’prigidir”, – degan irfoniy ta’limotga ko’ra majoziy muhabbat vositasida haqiqiy ishqni qalamga olgani, binobarin, ijodi ilohiy ishq tarannumidan xoli emasligini qayd etib o’tadi. “Mumtoz adabiy an’anada bo’lgani kabi uning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to’ldiradi, biri

¹² Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити // Асарлар, 7-жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 109.

ikkinchisiga vosita o‘laroq qaraladi”¹³.

S.G‘aniyeva va H.Ne‘matlarning yozishlaricha, adabiyotda tasavvuf dunyoqarashi in‘ikosi deganda ikki hodisani farqlash kerak:

- 1) tasavvuf adabiyoti, orifona adabiyot;
- 2) badiiy-orifona adabiyotda tasavvuf in‘ikosi.

Tasavvuf adabiyoti bu ta‘limotning falsafiy qarashlari va asosiy talab-qoidalari targ‘ibiga yo‘naltirilgan adabiyot bo‘lsa, badiiy adabiyotda tasavvuf ta‘limotining yuksak insonparvarlik g‘oyalari, xususan, ilohiy ishq va komil inson bilan bog‘liq qarashlari asarlar qatiga singdirib yuboriladi. Shuning uchun bunday asarlar zulma‘nayn hisoblanib, ham zohiriy, ham botiniy ma‘noga ega bo‘ladi. Amiriy g‘azallarida ham zulma‘naynlik hodisasini ko‘ramiz – zohiran oshiqona bo‘lib ko‘ringan ko‘pgina g‘azallari botinan orifona mazmundan ham xoli emas. “Oshiqona g‘azallar tarkibida zohiran ma‘shuqa – dunyoviy mazmundagi yor, botinda esa Haqning go‘zalligi tavsif etilgan g‘azallar ham uchraydi”¹⁴. Jumladan:

Lablaring takallumda to‘kti oncha gavharlar,

Termog‘iga ojizdur barcha nuqtaparvarlar (1,102), –

bayti bilan boshlanadigan g‘azali, bir qaraganda, hayot go‘zali madhiga bag‘ishlangan. Ayni paytda ma‘shuqa so‘zga og‘iz ochganda qilni qirq yoradigan donishmandlar ham mag‘zini chaqishga ojiz so‘z durlarini sochgani tasavvufiy mohiyatga ishora qiladi.

Amiriy mumtoz adabiyotdagi ishq kuychisi bo‘lgan hassos shoirlar sirasidan. U, asosan, hayot go‘zaliga bo‘lgan dunyoviy sevgini haddi a‘losida kuylagan. Hatto, irfoniy mazmun o‘z aksini topgan, tasavvufiy motivlar ifodalangan she‘rlarida ham shu yo‘ldan borganligi ma‘lum. Lekin ko‘pgina she‘rlarida dunyo go‘zali ta‘rifi ilohiy mahbuba vasfiga bog‘lanib ketadi. Bir qator she‘rlari esa sof irfoniy mavzuda – ularda haqiqiy ishq irfoniy istiloh va timsollar vositasida tarannum etiladi.

Amir insho qilur dildori vasfidin necha misra‘,

Kishi bilmas aning yorini, devon ichradur muzmar (1,107)

Amiriyning g‘azallarini uch guruhga ajratish mumkin: majoziy ishq tarannumiga bag‘ishlangan oshiqona she‘rlar; majoziy va haqiqiy ishq tasviri o‘zaro uyg‘unlashib ketgan ham oshiqona-yu, ham orifona she‘rlar; tasavvuf haqiqatlari badiiy talqin qilingan sof irfoniy – orifona she‘rlar.

Amiriy ko‘plab g‘azallarida o‘zini ishq mulkining amiri, ishq borgohining amiri, mulki dil amiri, Amiri pokboz, ushshoq amiri, iqlimi muhabbatning amiri, iqlimi vafo Amiri kabi sifatlar bilan ta‘riflaydiki, shuning o‘zi uning haqiqiy ishqni majoziy muhabbatdan ustun qo‘yishini bildiradi.

Ma‘lumki, tasavvuf falsafasiga ko‘ra ilohiy ishq manziliga majoziy ishq ko‘prigidan o‘tib boriladi¹⁵. Shuning uchun ham Navoiyning “ermish” radifli g‘azaliga muxammasida Amiriy “Haqiqat qasriga boshlab boradigan rahbar bu – majoziy ishq hisoblanadi”, – deb yozadi:

¹³ Қобилова З. Амирий шеърляти. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.117.

¹⁴ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Академнашр, 2019. –Б. 150.

¹⁵ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul, 1995. – 239 s.

Haqiqat borgohi rahbari ishq majoz ermish (1,375).

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh taolo har bir yaratqda u yoki bu darajada tajalliy etadi, biror-bir jon yoki narsa ilohiy nur jilvasidan xoli emas. Shuning uchun ham ma'rifat sohiblari har bir zarrada Yaratuvchi jamoli va kamolining in'ikosini ko'radilar va shuning uchun butun ashyo va jonli mavjudotga muhabbat nazari bilan qaraydilar. Parvardigori olam yaratgan narsani sevish aslida uning o'zini sevishdir. Xuddi majozdan haqiqatga borgan kabi, jonli va jonsiz mavjudotni sevish orqali ularning Yaratuvchisiga ishq ifodalanadi. Jumladan, Amiriy ham quyidagi baytida "Sarv qomatli go'zallar har qancha husnda tanho bo'lmasin, ular jamolining tomoshosidan maqsad aslida ularni Yaratuvchisidir", – degan irfoniy haqiqatni badiiy talqin qiladi:

Sarvqomatlarni ruxsori tamosho qilsa ham,

San erursan muddao, harchand bo'lsa bori xo'b (1,61).

Albatta, irfoniy she'riyatdagi haqiqiy va majoziy ishq ta'rifini ajrata bilish ham kerak. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" pandnomasida tasnif qilgani kabi, bir toifa qalam ahli, faqat ilohiy ishqni kuylasa, boshqa toifada haqiqiy va majoziy ishq tarannumi o'zaro omuxta bo'ladi, yana bir toifada esa majoziy ishq ta'rif-tavsifi ustuvor¹⁶. Aytaylik, Yusuf alayhissalom – go'zallik timsoli sifatida mumtoz she'riyatida haddi a'losida kuylanadi. Agar mahbuba husn-u jamolda undan ustun qo'yilsa, ko'rkda sening oldingda Yusuf husni ham xira deyilsa, u o'z-o'zidan, ilohiy ishq mavzusida bo'ladi, agar sen ikkinchi Yusufsan – Yusufi soniysan deyilsa, bilingki, endi so'z majoziy muhabbat bobida. Chunki Alloh taoloning payg'ambari uning o'zidan ustun qo'yilmaydi. Chunonchi:

Tui imro'z dar Misri muhabbat Yusufi soniy

Zi dunyo to ba uqbo sho'ri bozor ast az dastat (2,16).

"Bugun muhabbat Misrida sen ikkinchi Yusufsan – dunyodan to qiyomatgacha sodir bo'ladigan barcha g'avg'o-to'polonlar sen tufaylidir".

Mana bunda esa ilohiy mahbubaga ishorani ko'ramiz:

Jamoling jilvasin ko'rgan mahal Yusuf xijolatdin

Der erdi: "Zarramen, xurshidi ruxsoring erur ahsan!" (1,261)

Amiriyning irfoniy she'rlarida quyidagi asosiy g'oyalar yetakchilik qiladi: ilohiy ishqning dunyoviy muhabbatdan ustunligi; hayotning mohiyati va inson umrining ma'nosi haqiqiy ishqda ekanligi; dunyoviy muhabbatning o'tkinchiligi-yu haqiqiy ishqning abadiyligi; ilohsevarlik dunyo hoy-u havaslarini ko'ngildan siqib chiqarishi; Haq ishq insonning ko'nglini poklab, xulqini komillashtirishi va hokazo. Bu yuksak g'oyalarni shoir tasavvuf istiloh va timsollari, irfoniy ma'no kasb etgan an'anaviy obrazlar, ramz-u majozlar orqali badiiy talqin qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Irfoniy istiloh va timsollarning badiiy vazifalari**" deb atalib, ikki faslni o'z ichiga oladi. Bobning ilk fasli "*Istiloh – ma'no – mahorat*" deb nomlanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tasavvufshunosligida obraz, timsol, istilohlarning hali-hanuz muayyan tasniflari amalga oshirilmagan. Sharq mumtoz falsafasi va tasavvuf adabiyoti bilimdoni N.Komilov ularni umumlashma tarzda kinoya-timsollar deb yuritsa,

¹⁶ Навоий А. Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 9-жилд. – Тошкент, 2011. –Б. 464.

K.Mullaxo‘jaye va orif, rind, zohid kabi obrazlarni ham timsol deb oladi¹⁷. Biz esa hozircha nisbatan shartli ravishda orif, zohid, faqir, soqiy, pir kabi tasavvuf adabiyoti qahramonlarini obraz; yuz, ko‘z, ko‘zgu, obi hayot, sabo kabi ramzlashtirilgan so‘z va iboralarni timsol; tasavvuf ta‘limotining o‘ziga xos tushunchalarini ifodalaydigan vahdat, kasrat, tajalliy, lomakon, faqr kabi atamalarni istiloh o‘laroq tadqiq etdik.

“Alisher Navoiyning ko‘plab she‘rlarida majoziy va irfoniy ma‘nolar yonma-yon yashaydi. Ularni har ikki ma‘noda tushunish uchun ham imkoniyatlar yetarli bo‘ladi”¹⁸, – deb yozgan edi adabiyotshunos B.To‘xliyev. Bu fikrlarni hech ikkilanmay Amiriy ijodiga ham tatbiq etish mumkin.

Vahdat – Alloh taoloning birligi, yagonaligi. Tavhid shaklida ham keladi. Ayni tushunchaga binoan, olam va undagi barcha narsalar ilohiy nur jilvasidan iborat. Tajalliy deganda ilohiy nurning jilvalanishi, namoyon bo‘lishi ko‘zda tutiladi. G‘aybdan kelgan va ko‘ngilda zuhur etgan nurlar. Ilohiy nur jilvasi¹⁹. Amiriy ijodida bu irfoniy istilohga ko‘p duch kelamiz. Jumladan, forsiy g‘azallaridan birida shoir shunday yozadi:

*Tangnoi dahr tab‘amro kuduratxez kard,
Az tajalligohi vahdat in qadar duram hano‘z (2,141).*

Vahdat tajalliygohi deganda, ilohiy nur manbayi, ya‘ni olami quds tushuniladi. Tangno – tor joy, tog‘ darasi, ikki tog‘ orasidagi yo‘l. Majoziy ma‘noda torligi jihatidan qabr, u dunyoga nisbatan, hatto bu dunyo ma‘nosida ham keladi. Kuduratxez – ko‘ngilni xira qiladigan, uni g‘am-qayg‘uga soladigan. Baytdagi irfoniy tushunchalar ma‘nosi oydinlashgach, endi uni mana bunday talqin qilish mumkin: “Bu ko‘ngilni siqadigan tor dunyo ta‘bimni shunchalik xira, ko‘nglimni g‘amgin qilishiga sabab mening hali-hanuz yolg‘on dunyoga aldanib, haqiqiy olamdan uzoqligimdandir”.

Faqr – tasavvufning o‘zak tushunchalaridan biri sanaladi. Faqr so‘zining ma‘nosi faqirlik, bechoralik, muhtojlik bo‘lsa-da, tasavvuf falsafasida u faqat Allohga ehtiyojmandlik ma‘nosini bildiradi. Faqr maqomiga etishgan kishi nafs talablari, vujud ehtiyojlari, dunyo ne‘mat-u lazzatlaridan qo‘l tortib, birgina Haqning o‘ziga hojatmand bo‘ladi. “...**faqr – Haqqa yetishga monelik qiladigan barcha to‘siqlar (o‘zlik, kibr-u havo, g‘urur, manmanlik, nafs talablari, mol-mulk va mansab-joh orzusi va hok.)dan voz kechib, ko‘ngilni Xudo nazargohiga aylantirishdir**”²⁰.

Amiriy bir baytida “Boylar faqr orzusida, Xitoy hukmdorlari bizning sopoldan yasalgan qadahimiz hasratida o‘tdilar”, – deb yozadi:

*Dar orzuyi faqr guzashtand ag‘niyo,
Fag‘furi Chin ba hasrati jomi safoli most (2,45).*

¹⁷ Bu haqida qarang: Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996; Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: “Академнашр”, 2019.

¹⁸ Тўхлиев Б. “Холу хатинг хаёлидин, эй сарви гульзор...” \\\ Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар (Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари). X жилдлик, 5-жилд. – Тошкент: Ўзкитобсавдо, 2020. – Б. 17.

¹⁹ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul, 1995. – 346 s.

²⁰ Рамазонов Н.Н. Алишер Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. авт. – Тошкент, 2019. – Б. 24.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Tasavvufiy timsol va g‘oyaviy mazmun”** deb nomlanadi. Tasavvuf adabiyoti ramz-u majoz pardasiga o‘ralgan, istiloh va timsollar tili bilan so‘zlaydigan adabiyot. Bu adabiyotda deyarli har bir so‘z timsolga aylanadi, har bir timsol bir necha ma‘no qatlamiga ega bo‘ladi. Hammaga tushunarli bo‘lib ko‘rinadigan oddiy so‘z va an‘naviy timsollar ham muayyan irfoniy haqiqat va tushunchalarga ishora qiladi. Jumladan, bir matla‘sida shoir: “Zulfig halqasi bilan bog‘liq ramzlarni Amiriy ko‘plab ma‘no qirralari bilan shunday keng va chuqur sharhlab beradiki, uni eshitib, eng nuqtadon so‘z ustalari ham qoyil qolib, unga tahsin o‘qiydilar”, – deb lutf etadi:

*Ramzi halqai zulfung sharh etar Amir andoq,
Eshitib, qilur tahsin zufunun suxandonlar (1,113).*

O‘z-o‘zidan bu sharhlar turli irfoniy ramz-u timsollarning shoir she‘rlari bo‘ylab tarqalib ketgan nazmiy talqinlaridir. Bu talqinlar esa ilmiy tadqiq etishni taqozo qiladi.

Amiriy ijodida uchraydigan tasavvufiy timsollar ko‘p va rang-barang – shoir ijodida o‘zida irfoniy g‘oya va qarashlarni tashiydigan may (boda, sahbo, sharob), mayxona (xumxona), qadah (jom, paymona, sog‘ar, sabu, ratli garon, surohiy, xum), sabo (bodi sabo), xarobot, but, zunnor, oyina (ko‘zgu), obi hayot (obi baqo, obi hayvon), oh, simob, hubob, jamol, noma, sing‘on kosa (safol), jomi Jam (Jamshid), oyinai Iskandar, jilva, g‘amza, noz, itob, vola, savdo kabi so‘fiyona timsollarni ham, tasavvufiy ma‘no yuklanib, ilohiy ishq tarannumiga xizmat qildirilgan husn, yuz (oraz, ruxsor), ko‘z, qosh, soch, zulf, xol, lab, xat, zaqan (zanaxdon), qad, kiprik (mujgon), og‘iz, bo‘sa, bel kabi an‘naviy tashbehlardan o‘sib chiqqan timsollarni ham, Xudo va banda, oshiq va ma‘shuqning o‘zaro taqozodorlikdagi munosabatini o‘zida aks ettiradigan sham va parvona, qatra va ummon, quyosh va zarra, quyosh va soya, kufr va iymon singari timsollar juftligini ham ko‘ramiz.

D.Quronovning yozishicha, “...ramzlashtirish – “mutlaq go‘zallik”, “asliy go‘zallik”, “mutlaq haqiqat”, “haqiqat” singari turlicha nomlar bilan yuritilsa-da, bitta maqsad – Haqni anglashga qaratilgan. Ayni chog‘da, ramz ishora qiladi, xolos, ya‘ni bilish amalining natijasi mudom anglash-anglamaslik chegarasida qoladi. Shu bois, moddiy va ma‘naviy reallikdagi hamma narsa ramz (simvol)dirki, ularning har biridan ilohiy nur taraladi, har birida Yaratgandan nedir bor. Demak, Xudoni tanish uchun, eng avval, shu ramzlarni ko‘ra olish, mazmun-mohiyatini tushunish lozim”²¹.

Ma‘shuqa og‘zining ko‘rib bo‘lmas darajada mo‘jazligi uchun ham irfoniy she‘riyatda u yo‘qlikning sifati bo‘lib keladi. Shuning uchun ham shoir bir baytida har qancha tafakkur aylab ham og‘zing siridan xabar topolmadim, o‘zing so‘zga og‘iz ochki, men ham og‘zing borligidan voqif bo‘lay, ham ilohiy asrorlardan ogoh, deb lutf etadi:

*Taammul birla og‘zing nuqtasidin o‘lmadim g‘ofil,
Takallum ayla mango, kashfi asrori nihon keltur (1,86).*

Ma‘shuqning qilday nozik beli oshiq xayolining daqiqligini ham tamsil etadi.

²¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2018. – B. 440–441.

Bel ilohiy nazokat ma'nosida ham keladi²². Shuning uchun ham uning og'zi va beli bu she'riyatda bor-u yo'qning sifatida bo'lib keladi: *bor* deganda bel, *yo'q* deganda og'izga ishora qilinadi. Jumladan, Amiriy ham quyidagi baytida mahbubamning og'zi-yu beli xayolida halovat nimaligini bilmayman – uning adam bilan vujudi yo'g'-u borimga dushmandir deya, istiora yo'li bilan *adam* deganda og'ziga, *vujud* deganda beliga ishora qiladi:

*Emas rohat nasibim beli-yu og'zi xayolidin,
Adam birla vujudi yo'q ila borimg'a dushmandur (1,80).*

Oyina timsoli talqinida Amiriy Navoiyga emas, Bedilga ergashadi. Chunki Navoiy ijodida asosan nafs va dunyo g'uborlaridan poklanib, shaffof ko'zguga aylangan pok ko'ngilda ilohiy jamol jilvalanishi turli jihatdan talqin qilinadi. Bedilda esa bu timsol keng va serqirra mohiyat kasb etadi. Amiriy g'azallaridagi “Sening diydoring jilvasi tufayli hayratda ma'no-yu, yuzing mehri tufayli oyinada fayz mavjud” kabi baytlar, aynan Bedilning ilhombaxsh ta'siri mahsuli:

*Hayrat namak az jilvai didori tu dorad,
Oina shud az mehri liqoyat mutalazzaz (2,133).*

Iskandar ko'zgusi, Jamshid jomi, oyinai jahonnamo, jomi jahonnamo, oyinai getinamo kabi timsollar ham oyina istilohining ma'nodoshlari sifatida irfoniy she'riyatda keng qo'llanadi. Chunonchi, Amiriy Navoiyning “Qasrning har kunguri uzra balo toshimidur” misrasi bilan boshlanadigan g'azaliga bog'lagan taxmisida salafining “Qo'lida qadah-u uning ichidagi mayda butun ahvolini ko'rib turgan bu kishi Jamshidmi yoki mayxonadagi bir bechorami”, – mazmunidagi baytiga mana bunday misralar ilova qiladi:

*Jon etar yuz shavq ila ul rind istiqbolini,
Dayr ichida mastliqdin bilmas o'z ahvolini,
Ko'r, Skandar ko'zgidur, jomi Jam timsolini,
Ilgida jomu ko'rar may ichra olam holini,
Yo Rab, ul Jamshid yo mayxona qalloshimudur? (1,404)*

Bir-birini taqozo qiladigan timsollar juftligi ham Xudo va banda, oshiq va ma'shuq munosabatlarining badiiy talqinlariga xizmat qiladi. Amiriy o'z badiiy maqsadi ifodasi uchun irfoniy istiloh va timsollardan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida o'zining ko'plab irfoniy g'oya va qarashlarini ilgari surgan. Oyina timsolida inson ko'ngli bilan bog'liq masalalarni, may vositasida muhabbat qirralarini, quyosh va zarra orqali Xudo va banda munosabatlarini har tomonlama keng va chuqur talqin qilgani shular jumlasidandir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tasavvuf adabiyotining obrazlar tizimi**” deb ataladi. Bobning ilk fasli “**Irfoniy she'riyatning asosiy obrazlari**” deb nomlanadi. Har bir adabiyotning o'z qahramonlari bo'lganidek, tasavvuf she'riyatining qahramonlari ham butun bir silsilani tashkil etadi. Bu qahramonlarni irfoniy she'riyatda bajargan vazifalariga qarab bir necha guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Jumladan, Amiriy ijodi misolida bu qahramonlarni quyidagicha tasnif qilsa bo'ladi: ma'shuq, oshiq, raqib; pir, murid (tolib, solik), orif, darvesh

²² Абдуллаев А. Қисқача сўфиёна луғатлар / Тасаввув ва унинг намоёндалари (илмий-оммабоп рисола). – Тошкент, 2009. –Б.196.

(qalandar), barahman; soqiy, rind, mug‘bacha, tarso; shayx, zohid, muhtasib, voiz, nosih, tabib, hakim, qosid; Nuh, Iso, Xalil (Ibrohim), Muso, Ya‘qub, Ayyub, Yunus, Yusuf, Sulaymon, Muhammad, Xizr, Idris kabi payg‘ambarlar; Vays ul-Qaran, Mansur (Halloj), Bahouddin Naqshband kabi mashhur avliyolar; Jamshid, Iskandar, Mahmud singari shohlar va hokazo.

Bu qahramonlarni yana irfoniy she‘riyatdagi tasvir va talqiniga ko‘ra ijobiy va salbiy obrazlar sifatida ikki katta guruhga ajratish mumkin. Ijobiy qahramonlar: ma‘shuq, oshiq, pir, murid (tolib, solik), orif, darvesh (qalandar), soqiy, rind, qosid; salbiy qahramonlar: raqib, shayx, zohid, muhtasib, voiz, nosih, tabib, hakim.

